

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHNING MASOFAVIY
TA'LIM SHAKLI****Tursunaliyeva Madina****Ma'rufova Rayhana***Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari*

Annatatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lurma "Tarbiya" fanini o'qitishning masofaviy ta'lim shakli haqida so'z yuritiladi. Maqolada, masofaviy ta'lim xususiyatlari, "Tarbiya" fanini o'qitishda masofaviy ta'limning o'rni, masofaviy talim vositasida "Tarbiya" fanini o'qitish samaradorligi

Kalit so'z: Ta'lim, tarbiya, masofa, o'qitish, shakl, xususiyat, vosita, yondashuv, bilim, ko'nikma.

Ushbu maqolada Masofaviy ta'limning asosiy muammolari ya'ni, me'oriy – huquqiy baza to'liq ishlab chiqilmagan, ushbu tizimning ta'lim va pedagogika jihatlari ushbu masalaning tijorat qismidan oldin orqa fonda qolishligi, mavzularini hisobga olgan holda masofadan turib o'qitish tizimining aniq ta'riflarini tushunish va o'rnatish,nazariy bazaning aniq yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish va turli darajadagi ta'lim tizimlari uchun imkoniyatlarni baholash zarurligi. Bundan tashqari maqolada masofaviy ta'lim tizimining dolzarbligi, umuman olganda, jamiyatning rivojlanishi tehnalogiya sohasida axborotga o'tishiga bog'liqligi, axborot sektori doimiy yangilanib turadigan va o'zgarib turadigan asosiy bilimlarni bo'lishini zarurligi hamda, professional bilimlar eskirayotgannini ham yodda tutish kerakligi ularni doyimiy ravishda yangilab turish zarurligi haqida batafsil bayon qilingan.

Masofaviy ta'limning asosiy muammolari quydagilardan iborat:

-me'yoriy -huquqiy baza to'liq ishlab chiqilmagan,aslida ushbu tizimning mavjudligi va ishlashini ko'rsatuvchi alohida hujjatlar mavjud;

-masofaviy ta'lim;

-bu kunduzgi ta'limdan tashqari har qanday ma'lumot;

-ushbu tizimning ta'lim va pedagogik jihatlari ushbu masalaning tijorat qismidan oldin orqa fonda qolmoqda.

Masofaviy ta'lim-bu boshqa ta'lim shakllaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan eng yangi va eng zamонави о'qitish modelidir.

Masofaviy ta'lim xususiyatlari. Masofaviy ta'lim o'qitishning o'ziga xos shakllaridan biri bo'lib, unda ta'lim va tarbiya jarayoni virtual asosda amalga oshiriladi. Pedagog olimlarning fikricha, masofaviy ta'limni quyidagilarga tayangan holda amalga oshirish samarali hisoblanadi:

- televiedeniya orqali;

- radio orqali;

- kompyuter texnikasi vositasi orqali;

- ixtisoslashgan texnik jihozlar vositasida.

Masofaviy ta'limning bu vositalari murakkab sharoitlarda ham juda qo'l keladi. Misol uchun, COVID-19 pandemiya sharoitida mamlakatimiz ta'lim tizimida televidenie orqali o'qitish jarayoni tashkil etildi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bunday ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziqish va hoxish bilan ishtirok etdi. Ularning o'zlashtirish darajasi ham qoniqarli bo'ldi. Shu jihatdan onlayn shakldagi masofaviy ta'lim kutilgan samarani beradi.

Masofaviy ta'limda quyidagilarga amal qilish birlamchi hisoblanadi:

- ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faolligi;
- o'quv materiallarining qulayligi va takomillashtirilib boruvchanligi;
- o'qitishning multimediya, animatsiya shakllaridan foydalanishning mavjudligi;
- matbuot vositalari orqali o'quv materiallarini shakllantirish imkoniyatlarining borligi;

- masofaviy ta'lim vositasida ta'lim va tarbiyani ommalashtirish.

Umuman, masofaviy ta'lim hozirgi zamon ta'lim va tarbiya jarayonining zamonaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Bu ta'lim shakliga dunyoning ko'pchilik mamlakatlari amal qilmoqda. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashabbusi bilan "Hayot davomida ta'lim olish" dasturi amalgaga kiritildi. Unga ko'ra, inson butun umri davomida ta'lim olishi mumkin va bu g'oya O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham aks etgan. Mazkur g'oyani amalgaga oshirishda masofaviy ta'lim asosiy o'qitish shakli hisoblanadi. Shu jihatdan "Tarbiya" fanini o'qitishda ham masofaviy ta'limning muhim o'rni bor. Masalan, katta yoshli shaxsning tarbiyaga oid muammolari, savollari va murojaatlari aynan masofaviy ta'lim vositasida hal etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining masofaviy ta'lim asoslarini chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Masofaviy ta'lim quyidagilarga asoslanib amalgaga oshiriladi:

- 1) masofaviy ta'lim o'qishga ijobiy yondashuvni tarkib toptiradi;
- 2) pedagogik jarayoni maqsadi sifatida ta'lim oluvchiga yo'nalish berishga amal qilinadi;
- 3) metodologik, nazariy va uslubiy bilimlarni qulaylashtirilgan tarzda beriladi;
- 4) bilim faoliyatini mustaqil tashkil etishga amal qilinadi;
- 5) ta'limning turli axborotlarini topish va o'zlashtirishga imkoniyat beriladi.

Shu sababli masofaviy ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur ta'lim turining yagona kamchiligi shundaki, shaxsning tarbiyalanganlik darajasini kuzatib bo'lmaydi. Bunda faqat maxsus o'rganishlar vositasida shaxsning tarbiyalanganlik darajasini monitoring qilib borish imkoniyati mavjud. Eng asosiysi, masofaviy ta'lim vositasida bilim berishni kuchaytirish bilan shaxs tarbiyasida natijaga erishish mumkin.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda o'qituvchi alohida tayyorgarlik ko'rishi lozim. Bunda o'quv materiallarini tayyorlash, o'quvchilarning o'zlashtirish shakllarini ishlab chiqish va masofadan turib beriladigan ta'limning samaradorligiga erishishga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Buning natijasida ta'lim oluvchi masofadan turib bilimlarni

o'zlashtiradi va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish bilan o'zining bilim darajasini namoyon etadi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalari rivojlanib borgan sari masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish amaliyatga kiritilmoqda. Shu sababli oldiy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak „boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'limning bu shakllarini kutilgan darajada o'zlashtirilishi tavsiya etiladi.

“Tarbiya” fanini o'qitishda masofaviy ta'limning o'rni. “Tarbiya” fanini o'qitish jarayonida foydalaniladigan masofaviy ta'limning metodologik asoslarini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Bunday metodologik asoslarning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1) masofaviy o'qitishga kommunikativ yondashuv: bunda masofaviy ta'lim jarayonida qatnashuvchilarning muloqotlari asosida o'qitish jarayoni amalga oshiriladi va o'quv materiallari texnik vositalar asosida taqdim etiladi;

2) masofaviy o'qitishda nazoratni amalga oshirish: bunda masofaviy ta'lim jarayonida ta'lim berishning o'ziga xos shakllariga asoslaniladi va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish jarayoni virtual tarzda nazorat qilib boriladi;

3) masofaviy o'qitishning axborotli vazifasi: bunda masofaviy ta'lim jarayonidagi o'quv materiallari anketa, jadval, diagramma, gistogramma va mul'timediyalar shakllarda taqdim etiladi;

4) masofaviy ta'limda o'qitish vazifasi: bunda asosiy e'tibor o'quv fanining mavzularini modullar asosida o'qitishga qaratiladi.

Bularning barchasi “Tarbiya” fanini masofaviy ta'lim vositasida o'qitish asoslarini tashkil etadi.

Masofaviy ta'lim vositasida “Tarbiya”fanini o'qitish samaradorligi .Hozirgi zamon ta'lim jarayonida “Tarbiya” fanini o'qitishning samaradorligiga erishish yo'llari ishlab chiqilmoqda. Biz bu borada quydagи yondashuvlarni taqdim etamiz;

-umumta'lim maktablarda o'qitiladigan “Tarbiya” fani mavzularini o'zaro bog'liqlik va uzviylik tamoillari asosida tuzish;

-maskur fanning darsliklarini matniy chuqurlik va dizayin jihatdan estetika talablariga mos ravishda tayyorlash ;

-bu fanning boshqa fanlar vositasida amalga oshiriladigan tarbiya ishlarini muvofiqlashtirib borish maqomiga erishish;

-“Tarbiya ” fani o'quvchilarining bilimi va malakasi muntazam ravishda oshirib borish ;

-mazkur fan o'qituvchilari va sinf rahbarlarining tarbiyaga doir vazifalarini məktəb nizomida aniq belgilab qo'yish.

Bularning barchasi masofaviy ta'lim vositasida “Tarbiya” fanini o'qitish samaradorligiga olib keladi. Shu jihatdan o'rta umumta'lim maktablarning “Tarbiya”fanini o'qitish jarayonini virtual tarmoqlar orqali hamkorligini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, bu borada Toshkent viloyati Chichiq davlat pedagogika universitetida “Maktab - laboratoriya ” tizimi yo'lga qo'yilgan. Unda Toshkent viloyatining o'rta umumta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan o'qitish

jarayonining muammolari o'rganib boriladi va bu natijasida "Pedagogik ta'lism inovatsion klasteri "tuzilgan. Klaster doirasidagi o'rta umumta'lim maktablarining tajribasi targ'ibot qilib borilmoqda.

"Tarbiya "fanini masofaviy ta'lism vositasida o'qitishda quydagilarga alohida e'tibor berish lozim:

-ta'lism oluvchilarining, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavzularini o'zlashtirishini virtual tarzda izchil nazorat qilib borish;

-fanining mashg'ulotlarini to'liq ko'rgazmali virtual vositalar asosida o'tkazish;

-tarbiyaga doir ilmiy- o'quv ishlanmalarini taqdim etish;

-o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini ota-onalar va jamoatchilik vositasida o'rganib borish;

-jamoatchilihning tarbiya ishida ishtirok etishiga erishish.

O'qitishning masofaviy ta'lism vositasida ta'lism va tarbiya berish qulayliklariga ega bo'lib, unda ta'lism beruvchilar hamda ta'lism oluvchilar faol ishtirok etadi. Ayni paytda, "Tarbiya" fanini masofaviy ta'lism asosida o'qitishning metodologiyasini ishlab ishlab chiqarish taqoza etiladi. Bunday metodologiyani ishlab chiqishda quydagi hujjalarga asoslanish shart;

-O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalari ramkasi;

-Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030" startegiyasi;

-"Tarbiya" fani uchun umumiyl o'rta talimning davlat ta'lism standartlari;

-"Tarbiya" fani bo'yicha umumiyl o'ta ta'lism muassaslari o'quvchilariga qo'yildigan malaka talablari;

-tarbiya bo'yicha pedagogika ilmiy-tadqiqotlarining hulosalari.

Bunday yondashuv asosida "Tarbiya" fanini o'qitishda masofaviy ta'limga imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Shu sababli oliy pedagogika ta'lism jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari masofaviy ta'limga turli shakllarini o'zlashtirishi maqsadga muvofiqli bo'ladi.

Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi quydagilarni o'z ichiga oladi; o'qitish maqsadi davlat ta'lism standartlari asosida shakllantirilib, bilim, ko'nikma va malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o'z ichiga oladi.

Ta'lism oluvchilar.Masofaviy o'qitish tizimida ta'lism oluvchilarining nomlanishi hali aniqlanmagan. Ba'zan ularni tinglovchilar deb aytadilar.Masofaviy o'qitish tizimi ta'lism oluvchilarining yetarli tayyorgarligini va ish o'rinalining texnik ta'minotini talab etadi.

XULOSA

Yuqorida tavsiflangan barcha ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, shuni ham ta'kidlash mumkinki, masofadan turib o'qitish muammolari mavjud, ammo ular ancha barqaror.Ushbu ta'lism shaklining sifati va samaradorligi bevosita darslarni interfaol tarmoq orqali olib boradigan o'qituvchilarga bog'liq.Bular eng yangi pedagogik texnikaga ega, axborot teeknologiyalari sohasidagi yangiliklarga ega bo'lgan, noyob axborot muhitida ishlashga tayyor bo'lgan universal o'qituvchilar bo'lishi kerak.Yechim bosqichida masofadan o'qitilgan o'quvchilarining bilimlarini baholash

masalasi haligacha qilmoqa.Ushbu muammolar,ilgari aytilganidek,masofaviy ta'lim uchun me'yoriy -huquqiy bazaning yo'qligi muammosiga olib keladi.Ta'limning masofaviy shaklini inobatga olgan holda, doimo yangilanib turadigan va o'quv jarayoning o'ziga xos ehtiyojlariga mos keladigan yagona noyob o'quv va axborot interfaol muhit yaratilishi kerakliginin tushinish kerak.Bularning barchasi masofaviy ta'limning yuqoridagi muammolarining ahamiyatini anglashga olib keladi. Ushbu mintaqada o'qitishning katta istiqbollari, ushbu tizim aqli va yuqori malakali jamoyatni rivojlantirish uchun keltiradigan imtiyozlari tufayli,O'zbekiston hududlarida masofaviy o'qitishdan foydalanishni yaxshilash va kengaytirish kerak.

ADABIYOTLAR:

- 1.Jakbarov O., Madraximova M.,Jakbarova D. PREZI dasturini o'rgatuvchi dasturiy mahsulotni ishlab chiqish algoritim //” Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikasjon texnologiyalari; muammo va yechimlar ” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materillari to'plami- Namangan, NamMKI, 2018.-B.3334
- 2.Mallaboev N.,Madraximova M., Masofaviy ta'lim tizimining didaktik vositalari//Экономика и социумб-Россия,2021.-N2 (81).- Б.100-108.